

O'ZBEKISTONDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHNING AHAMIYATI

Azimova Yoqutxon Sarvar qizi

TDIU 2-kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Eksport, tashqi savdo, barqaror iqtisodiyot, eksport diversifikasiysi, iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik.

Annotations

Mazkur maqolada tashqi savdoni rivojlantirish, xususan eksport salohiyatini oshirish yo'llari hamda eksportbop mahsulotlarni diversifikasiya qilish, mamlakatning xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlashi hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashi uchun juda muhim ekanligi haqida va O'zbekiston Respublikasida eksport sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2025 LWAB.

KIRISH

Eksport salohiyatini oshirish uchun mamlakatlar o'z mahsulotlarini va xizmatlarini diversifikasiya qilishlari ya'ni, yangi bozorlar va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish zarurligini anglatadi. O'xshash mahsulotlarni eksport qilishdan ko'ra, texnologik jihatdan rivojlangan hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirish eksportni yanada kengaytirishda samaraliroq natija beradi. Mahsulotlar sifatini yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirish hamda zamон talabiga javob beradigan darajada ishlab chiqarish, xalqaro bozorlarda mamlakatning pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi va yaxshi sifatlari mahsulotlar xorijiy iste'molchilarni jalb etadi va shu bilan birga eksport hajmini oshiradi. Savdo va diplomatik aloqalarini rivojlantirish eksport salohiyatini oshirishning salmoqli yo'llaridan biridir. Yangi bozorlar ochish va mavjud bozorlar bilan savdo aloqalarini mustahkamlash uchun diplomatik tashabbuslarni kuchaytirish zarur. Mamlakatlar o'rtaida savdo kelishuvlari va bojxona imtiyozlari eksportning o'sishiga o'z hissasini qo'shmay qolmaydi.

Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali eksportni qo'llab-quvvatlash mumkin. Investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratishga va eksportga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga va kengaytirishga yordam beradi. Savdo tarmoqlarining samarali ishlashi uchun transport va logistika tizimlarini rivojlantirish zarur. Eng yangi texnologiyalarni qo'llash, chegara o'tkazish punktlarini modernizatsiya qilish, yuklarni tezda va arzon narxlarda yetkazish eksport jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Mamlakatlar eksport qiladigan mahsulotlarni xalqaro bozorlar uchun mos ravishda brend va marketing strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak. Mahsulotlarni global bozorda taniqli qilish va uning imidjini yaratish, eksport hajmini oshiradi. Eksportni qo'llab-quvvatlash uchun turli grantlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va moliyaviy yordam dasturlarini ishlab chiqishi kerak. Bu, ayniqsa kichik va o'rta biznesni xalqaro bozorlarga chiqishga undaydi.

MATERIALLAR

Raqamli texnologiyalar va elektron savdoning rivoji eksport salohiyatini oshirish uchun katta

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch

imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron tijorat platformalaridan foydalanish orqali kichik va o‘rtaligda bizneslar o‘z mahsulotlarini global bozorlar orqali sotishi mumkin. Eksportning o‘sishni mamlakatning milliy daromadiga bevosita ta’sir qiladi. Ko‘proq eksport qilish orqali xalqaro bozorlardan tushumlar ko‘payadi va bu mamlakatning umumiyyatini iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi. Eksportning oshishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va ishlab chiqarish sektori kengayishi va bu o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga olib keladi va aholi bandligini yaxshilaydi. Eksportni oshirish orqali mamlakatlar ko‘proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilishadi. Investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun zarur omil hisoblanadi. Eksport hajmining ko‘payishi, valyuta kirimlarini oshiradi va milliy valyutaning barqarorligini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida importni moliyalashtirishga yordam beradi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Eksportni oshirish sanoatning turli sohalarini rivojlantiradi. Yangi texnologiyalarni qo‘llash va raqobatbardoshlikni oshirish orqali sanoat sohalari o‘sadi va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yaxshilaydi. Shunday qilib, eksport salohiyatini oshirish nafaqat mamlakatning iqtisodiy o‘sishini tezlashtiradi, balki milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash va xalqaro bozorlar bilan aloqalarni kuchaytirish uchun ham muhimdir. Eksportni qo‘llab-quvvatlash, yangi bozorlarni ochish va eksport diversifikatsiyasi iqtisodiy o‘sishning barqaror manbai bo‘ladi.

Tadqiqot va usullar.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu eksport hisoblanadi. Shu sababdan biznes muhitini yaxshilash, tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarur.

Eksport sohasini qonuniy asosini mustahkamlash maqsadida 60 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi va tashqi savdo jarayonlari soddalashtirilib, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatida bir qator yengilliklar va imtiyozlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrdagi “Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, eksportni qo‘llab-quvvatlash milliy tizimi yaratildi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida eksportni rag‘batlantirish agentligi tashkil etildi. 205 nomdagagi tovarlarni eksport qilishda transport xarakatlarining 50 foizini qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi. Bunday chora-tadbirlar albatta o‘z natijasini bermoqda. Eksport bilan shug‘ullanadigan sub’ektlar safiga 2 mingta yangi korxona qo‘shildi, eksport geografiyasi 42 ta davlatga kengaydi, 59 turdagagi mahsulot birinchi marta eksportga yo‘naltirildi. 2018-yilning yetti oyida tovarlar va xizmatlar eksporti 7 milliard 331 million dollarni tashkil etgan, bu 2017-yilning shu davriga nisbatan 23 foiz ko‘p.¹

Yurtimizda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari butun dunyoda qadrlanadi hamda bu “brend” eksport uchun katta imkoniyat hisoblanishiga katta ahamiyat qaratildi. Xorija tashriflar hamda xalqaro ko‘rgazmalar doirasida imzolangan eksport shartnomalarining bajarilishi, oktabr oyida “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” nomli xalqaro ko‘rgazma o‘tkazilishiga oid masalalarga ham alohida e’tibor qaratildi.

Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport hajmlarini ko‘paytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, tayyor mahsulot yetkazib beruvchilarni qo‘sishma moliyaviy va tashkiliy rag‘batlantirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida Prezidentimizning 2020 yil 21-oktyabrdagi “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning biri bo‘ldi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligiga tijorat banklariga eksport bilan bog‘liq savdo

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4116006>

operatsiyalari va eksportoldi moliyalashtirish kreditlari uchun moliyaviy resurslar ajratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va moliya kompaniyalaridan eksportoldi moliyalashtirish uchun mablag‘lar jalg etish ishlarini tashkillashtirish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi va bir martalik moliyaviy resurslar 1 million AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda (yillik eksport hajmi 20 million AQSh dollaridan oshgan eksport qiluvchi korxonalarga 5 million AQSh dollarigacha ekvivalentda) hamda bir yilgacha muddatga ajratildi, “Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturiga kiritilgan eksport qiluvchi tashkilotlarga oxirgi 12 oy mobaynida amalga oshirilgan eksport hajmidan kelib chiqqan holda 1 yil muddatgacha moliyaviy resurslar ajratildi. Qandolatchilik korxonalariga eksportoldi va eksport bilan bog‘liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirishi uchun oxirgi 12 oy mobaynida amalga oshirilgan eksport hajmidan kelib chiqqan holda 2 yil muddatgacha moliyaviy resurslar ajratildi.

Tahlil va natijalar.

Eksport qiluvchilar tomonidan tovarlar ular bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirib to‘lash sharti bilan eksport qilinganda shu jumladan, korxonalar tomonidan qayta ishslash mahsulotlari “reeksport” bojxona rejimida olib chiqilganda, ularning aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun revolver kreditlarni moliyalashtirishga tijorat banklariga to‘lovlar kechiktirilgan muddatga va olib chiqilayotgan mahsulotlar qiymati miqdorida, biroq 3 million AQSh dollari ekvivalentidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda, yillik 4 foizli stavka shundan, 2 foizi bank marjasи bilan moliyaviy resurslar taqdim etildi.²

Ushbu hujjatda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan korxonalarga beriladigan kafolatlar bo‘yicha yangi imtiyozlar tasdiqlandi.

Mazkur hujjat qabul qilingunga qadar tijorat banklarining eksport oldi kredit bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya faqat ishlab chiqaruvchi eksportchilarga berilgan. Mazkur farmon bilan yirik imtiyoz asosiy faoliyati savdo vositachiligi bo‘lgan eksport qiluvchilarga ham joriy etildi.

Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan 272 ta korxonaga 164 million AQSH dollar miqdorida eksport oldi kredit mablag‘lari ajratilgan. Ular tomonidan 703 million eksport amalga oshirilgan va bu hozir ham davom etmoqda.

Eksport qiluvchi korxonalar faoliyatidagi asosiy muammolardan yana biri bu aylanma mablag‘ yetishmaslidir. Joriy qilingan yangi tartib orqali yana bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar kengaytirildi. Xususan, aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun tijorat banklardan olingan kreditlar bo‘yicha taqdim etiladigan kafolat miqdori 4 milliard so‘mdan 8 milliard so‘mgacha oshirildi.

Prezidentimizning 2020 yil 31 oktyabrdagi “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan eksportchi korxonalarning mablag‘ga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida hamda ularni eksport majburiyatlarini bajarishda ko‘maklashish maqsadida aylanma mablag‘larini ta’minlash bo‘yicha moddiy yordam ko‘rsatish tizimi joring qilingan.

Ushbu turdagи moliyaviy yordamdan ko‘zlagan asosiy maqsad eksportchi korxonalarni xaridorlar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘liq bajarish, bundan tashqari sifatli va raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishdir. Shu bilan birga, yangi turdagи tovarlar bilan tashqi bozordagi yangi xaridorlar topish va eksport geografiyasini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbarining 2022 yil 30 sentyabrdagi “Tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturda 200 ta eksportchi korxonani saralab, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali yetakchi eksportchi korxonaga aylantirish vazifasi

² <https://www.lex.uz/uz/docs/-5060630?ONDATE=01.01.2025%2001>

belgilangan edi. Mazkur dasturni uch bosqichda amalga oshirish belgilangan. Ya’ni, birinchi bosqichda 2022 yil yakuniga qadar 50 yetakchi eksportchi korxonalar saralab olindi. 2023 yil boshida esa ular soni 100 taga yetkazildi. 2023 yil 1 iyuldan esa bosqichma-bosqich ular soni 200 taga yetkaziladi. bugungi kunga qadar dasturga qaratilgan 100ta eksportchi korxonalarining 36 tasiga 71 milliard so‘mlik QQS tezlashtirilgan tartibda 7 kun ichida qaytarib berildi. Bundan tashqari 20 tasiga eksport oldi moliyalashtirish maqsadida 17,3 million dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Shu bilan birga mazkur eksportchi korxonalarda xalqaro sertifikat va standartlarni joriy etish uchun 30 ming dollargacha bo‘lgan qiymatda Eksportni rag‘batlantirish agentligidan moliyaviy yordam olish imkoniyati mavjud. Yil boshidan bugungi kunga qadar 100 ta eksportchi korxona tomonidan 120 million dollarlik eksport amalga oshirilgan.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining ma’lum qilishicha, 2017–2022 yillar mobaynida mamlakatimizning eksport geografiyasi 16 ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mahsulotlarimiz 117 ta mamlakatga yetib bormoqda. Tovar nomenklaturasida 2017 yildagi 179 xil mahsulot turi 2022 yilga kelib 200 dan ortdi.

Shuningdek, paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o‘rniga paxtadan tayyorlangan qo‘shilgan qiymati yuqori tovarlar eksporti yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, umumiyligi 1 613,5 million AQSH dollariga teng bo‘lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 million dollarlik tayyor trikotaj va to‘qimachilik mahsulotlari, 242,8 million dollarlik naqshli mato, 131,6 million dollarlik gazlamalar, 78,1 million dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 million dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq “O‘zbekiston-2030” strategiyasi ishlab chiqildi va undagi 100 maqsadning⁵⁵ maqsadida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish qamrab olingan. Eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish.

Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish.Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish.Dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish.“Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator maqsadlar o‘z aksini topgan.³

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston –2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 37-sonli qarorida yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish to‘g‘risida, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2barobar oshirib, eksport hajmi o‘sishini 25 foiz darajasida ta‘minlash, xususan, ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,2 barobarga, eksportni hajmini 1,5 barobarga oshirish, ipak mahsulotlarining eksportini 150 mln. AQSH dollarga yetkazish, meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmini esa kamida 2,5 mlrd. AQSH dollarga yetkazish to‘grisida ta‘kidlangan. Shuningdek, ushbu strategiyaning 55-maqsadida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish vazifasi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 26-fevraldagi “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘srimchachora-tadbirlar to‘g‘risida” 87-sonli qarorida esa, raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarining jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda xizmatlar eksport faoliyatini olib boruvchi xorijiy kompaniyalarni mamlakatimizga keng jalb etish,mahalliy bozor uchun IT

³ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarni xalqaro IT-bozorga olib chiqish, ularning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, IT-park rezidenti bo'lgan tashkilotlarga eksport jarayonlarini tashkil etish yo'nalishlarida IT-park tomonidan bepul maslahat xizmatlari ko'rsatishi to'g'risidagi vazifalar belgilangan.

2024-yil 18-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan o'tkazilgan muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida:

Kichik biznesni uzlusiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida 2024-yilda yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, saralash, quritish, qayta ishlash hamda ularni eksport qilish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish uchun tijorat banklari tomonidan jami 1,5 trillion so'mgacha bo'lgan miqdorda kredit resurslari yo'naltiriladi. Mazkur kredit resurslari hisobidan kreditlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlariga aylanma mablag'lari uchun revolver tarzda 1,5 milliard so'mgacha 6 oylik imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada ajratiladi.

Mahalliy mahsulotlar stendlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ixtisoslashgan nufuzli xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda jozibador lokatsiyalarda joylashtirish uchun ariza kiritish va Savdoga ko'maklashish jamg'armasiga amalda ajratilgan mablag'lar hisobidan oldindan 100 foiz to'lab berish tartibini joriy qilinishi. Ko'rgazma va yarmarka tadbirlarida ishtiroy etish xarajatlari uchun tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingidagi toifasiga mutanosib ravishda, jumladan "AAA" bo'lganda 100 foiz, "AA" — 95 foiz, "A" — 90 foiz, "VVV" — 85 foiz, "VV" — 75 foiz hamda "V" — 65 foiz miqdorida subsidiyalar ajratiladi.

Mahallalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ib-sotuvchi jismoniy shaxslar va mahalliy eksport qiluvchi korxonalar o'rtaida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oldi-sotdi shartnomalari soliq organlarining maxsus mobil ilovasida rasmiylashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan, shu jumladan dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalarida yetishtirilgan mahsulotlarni o'zaro shartnomalari asosida tashkillashtirilgan tarzda eksport qiluvchi mahalliy eksportyor korxonalarga boshoqli don ekinlardan bo'shaydigan maydonlarning 50 foiziga eksportbop ekin turlarini ekishga buyurtmalar berish amaliyoti joriy etildi.

Yoshlar ishlari agentligi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Eksportchilar uyushmasi hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda bir oy muddatda xorijiy tillarni o'zlashtirgan yoshlarni eksport amaliyoti bo'yicha qisqa muddatli kurslarda bepul o'qitish, eksportchi korxonalarga biriktirish tartibini ishlab chiqib va amaliyotga joriy qilindi. Ushbu loyihalarni amalga oshirishga Jahon bankidan jaib qilingan mablag'lar hisobidan 30 million AQSh dollari yo'naltirildi. O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari tegishli davlatda mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish va realizatsiya qilishda savdo agentlari faoliyatini yo'lga qo'yildi.

Respublika komissiyasi xorijdagi savdo agentlariga doir ma'lumotlarni "Agroko'makchi" mobil ilovasiga kiritadi hamda yangilab boradi Loyihalardan biri "Agroko'makchi" mobil ilovasi bo'lib, unda o'simliklar himoyasi, bu sohadagi xizmatlar, foydali ma'lumotlar, eksport bo'yicha maslahatlar bilan tanishish mumkin. Asiaexport.se platformasi esa O'zbekistondagi eksportchilar bilan chet eldag'i xaridorlarni o'zaro bog'laydi. Unda nafaqat meva-sabzavotlar va quritilgan mevalar, balki sharbatlar, uy-ro'zg'or buyumlari, qandolatchilik, to'qimachilik, charmdo'zlik va farmatsevtika mahsulotlari kabi keng turdag'i tovarlar haqida ma'lumotlar joylashtiriladi.

Agentlikning xalqaro ePhyto solution innovatsion tizimi doirasidagi hamkorligi haqida ham axborot berildi. Bu tizim orqali 119 ta mamlakat bilan fitosanitar sertifikatlar elektron shaklda almashilmoqda. Joriy yilda yana 8 ta davlatga 25 turdag'i mahsulot bo'yicha fitosanitar ruxsatnoma olinadi.

Shunday chora-tadbirlar natijasida bu yil qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazish mo‘ljallangan. 2023-yilda qishloq xo‘jaligi sohasidagi eksport qariyb 2 milliard dollarni tashkil etgandi. Davlat rahbari buning uchun, avvalo, eksportbop mahsulotlarni ko‘paytirish, fermer va dehqonlarning xabardorligini oshirish zarurligini ta’kidladi.

Muhokamalar.

Belgiyadagi Yevropa geosiyosiy forumi portalida "O‘zbekiston o‘z mahsulotlarini 115 davlatga eksport qilmoqda" sarlavhali maqola e’lon qilindi va bu maqolada: "Respublikada "O‘zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga – eksportdagি xususiy sektor ulushini 60 foizga oshirishga qat’iy amal qilgan holda eksport tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlanmoqda", – deb keltirilgan.

2017-2023 yillarda O‘zbekistonning umumiy eksporti 120 milliard AQSh dollarini tashkil etgani xabar qilingan. Birgina 2023 yilda eksport 24 milliard dollarga yetdi, bu 2017 yilga nisbatan 64 foizga o‘sgani, oxirgi olti yilda O‘zbekiston eksport yetkazib berish geografiyasini yana 33 ta yangi davlatni qamrab olgan holda kengaytirib, umumiy tashqi bozorlar sonini 115 taga yetkazdi. Bugungi kunda O‘zbekiston mahsulotlari Peru, Panama, Meksika, Dominikan, Argentina va Albaniya, Serbiya, Finlyandiya, Lyuksemburg va boshqa mamlakatlar bozorlariga birinchi marta kirgani haqida xabar qilingan.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda eksportni qo‘llab-quvvatlash milliy tizimi korxonalarini eksport faoliyatiga jalb etishga alohida e’tibor qaratilayotgani haqida ham keltirib o‘tilgan.

"Masalan, o‘tgan yili 3 mingga yaqin mahalliy korxona eksport faoliyatiga qo‘shildi. Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida 2 ming 450 ta korxona ilk bor tashqi bozorga chiqib, jami 1 milliard dollarlik mahsulot eksport qildi", – deya qayd etilgan. O‘zbekistonda eksportni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan joriy islohotlar 2030-yilgacha bo‘lgan milliy strategiyada belgilangan maqsadlarga erishishga ishonch bilan yo‘l ochayotgani haqida ham keltirilgan.⁴

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-dekabr kuni investitsiya bo‘yicha 2024-yildagi natijalar sarhisobi va 2025-yilgi vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi. Eksport-logistika zanjirlari qiyinlashayapti, O‘zbekistonning asosiy eksport bozorlarida tayyor mahsulot olish kamayyapti. Bunday sharoitda ichki imkoniyatlarni to‘liq safarbar qilib, iqtisodiy taraqqiyot sur’atlarini oshirish zarurligi ta’kidlandi. 2030-yilgacha mamlakatning yillik eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 mlrd dollarga olib chiqish maqsadi belgilangan.⁵

Barqaror iqtisodiy o’sish haqida gap ketar ekan avvalo iqtisodiyotda o’sish tushunchasini anglab olish darkor. Mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi davrlarga nisbatan ko‘paygan miqdorda takrorlanib turishi iqtisodiy o’sishdir. Iqtisodiy o’sishni ta’minalash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko‘payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy O‘sishni shart qilib qo‘yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy o’sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o’sish – bu iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatining va yalpi ichki mahsulotning vaqt o’tishi bilan o’sishidir. Odatda o’sish nominal yoki real YIMning oshishi bilan o’lchanadi. Iqtisodiy o’sish iqtisodiy resurslarning samarali ishlatalishini yoki texnologiyalarning rivojlanishini aks ettiradi, lekin uning barqarorligi va ijtimoiy tengligi haqida hech qanday kafolat bermaydi.

Barqaror iqtisodiy o’sish — bu iqtisodiyotning uzoq muddatda muvozanatli va barqaror tarzda rivojlanishidir. Bunday o’sish nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ijtimoiy va ekologik omillarni ham

⁴ <https://kun.uz/news/2024/12/14/ozbekiston-eksport-geografiyasini-yana-33-ta-yangi-davlatga-kengaytirdi>

⁵ <https://www.gazeta.uz/uz/2024/11/27/investments/>

hisobga oladi. Barqaror o'sishning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni davom ettirish, ammo bu o'sish resurslar va muhitni haddan tashqari sarf qilmasdan amalga oshiriladi. Barqaror o'sish texnologik yangiliklar va innovatsiyalarni, xususan, energiya samaradorligini oshirish va yashil texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Ishchi kuchining malakali bo'lishi va ta'lif tizimi rivojlanishi, ish o'rinalarini yaratish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhimdir. Barqaror iqtisodiy o'sish davlatning iqtisodiy siyosatiga bog'liq bo'lib, iqtisodiy o'sishning ekologik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rishni talab etadi.

Xususiyat	Iqtisodiy o'sish	Barqaror iqtisodiy o'sish
Muddat	Qisqa muddatli o'sish	Uzoq muddatli o'sish
Resurslardan foydalanish	Resurslarni haddan tashqari sarflash mumkin	Resurslar oqilona va samarali ishlataladi
Ekologik ta'sir	Ekologik ifloslanish va resurslarning kamayishi mumkin	Ekologik muvozanat saqlanadi, atrof-muhitni asrash
Ijtimoiy ta'sir	Jamiyatning ayrim qismlariga ta'sir qilishi mumkin	Jamiyatdagi barcha qatlamlarga ijobiy ta'sir etadi
Inflatsiya	Inflatsiya yoki iqtisodiy notenglikni kuchaytirishi mumkin	Inflyatsiya darajasi nazoratda bo'ladi
Innovatsiyalar	Innovatsiyalarni joriy etishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi mumkin	Innovatsiyalar ekologik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq

Barqaror iqtisodiy o'sish, ayniqsa, resurslar kamayib borayotgan va atrof-muhitning ta'siri kuchaygan hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.


1971-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan amerikalik mashhur iqtisodchi Saymon Kuznets iqtisodiy o'sishga: "Xo'jalikning aholining tobora ko'proq va xilma-xil ehtiyojlarini tobora samaraliroq texnologiyalar yordamida va ularga mos tushadigan institutsional va mafkuraviy o'zgarishlar yordamida ta'minlaydigan qobiliyatining uzoq muddatli ortishi" degan ta'rif bergan.

Uning fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sishning uchta asosiy belgisi bor:

- milliy mahsulotning doimiy o'sishi natijasida ehtiyojlarning tobora ko'proq hajmini qondirish imkoniyati; • o'sishning asosi, uning yetarli bo'lmasa ham zarur bo'lgan sharti sifatidagi texnika taraqqiyoti;
- o'sish salohiyatini to'laroq amalga oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional, harakat va mafkuraviy o'zgarishlar⁶

⁶ M.A.Mamatov Iqtisodiy o'sish o'quv qo'llanma Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021-384b.

S. Kuznetsning iqtisodiy o'sish madeli




O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq "O'zbekiston-2030" strategiyasi ishlab chiqildi va undagi 100 maqsadning 45-maqsadida:

2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarus darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta'minlash, pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflatsiyani 5-6 foiz darajasida ta'minlash. Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish. Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi uchun o'rta muddatlarga mo'ljalangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish. Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash kabi ustuvor maqsadlar o'z aksini topgan.⁷

Jahon banki 2024-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan mamlakatlar Gruziya, Tojikiston va O'zbekiston ekanini qayd etdi, ammo 2000-yillar boshiga nisbatan ancha past darajada qolmoqda.

2021-2024 yillarda real YalM o'sishi (%):



⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Xulosa: Eksportni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiyotga erishish mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinalarini yaratish va global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Bu nafaqat chet el valyutasini jalg qilish, balki mahalliy sanoatni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy resurslarni samarali boshqarishga olib keladi. Shuningdek, eksportni rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, aholi turmush darajasini yaxshilashga ham hissa qo'shadi. Natijada, eksport iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish va mamlakatni global raqobatda muvaffaqiyatli qilish uchun zarur bo'lgan asosiy omilga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-4116006>
2. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5060630?ONDATE=01.01.2025%2001>
3. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. <https://kun.uz/news/2024/12/14/ozbekiston-eksport-geografiyasini-yana-33-ta-yangi-davlatga-kengaytirdi>
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/11/27/investments/>
6. M.A.Mamatov Iqtisodiy o'sish o'quv qo'llanma Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021-384b.
7. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>